



INGLIZ VA O‘ZBEK SIYOSIY DISKURSIDA EVFEMIZMLARNING QIYOSI

Jabborova Aziza Jobirovna

Namangan Davlat Universiteti Tayanch Doktoranti

azizajabborova14@gmail.com +998972961797

ORCID iD: 0009-0001-0962-4384

СРАВНЕНИЕ ЭВФЕМИЗМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Жабборова Азиза Жобировна

Докторант Наманганского государственного университета

azizajabborova14@gmail.com +998972961797

ORCID ID: 0009-0001-0962-4384

COMPARISON OF EUPHEMISMS IN ENGLISH AND UZBEK POLITICAL DISCOURSE

Jabborova Aziza Jobirovna

Doctoral student of Namangan State University

azizajabborova14@gmail.com +998972961797

ORCID iD: 0009-0001-0962-4384

Аннотация Evfemizmlar zamonga va insonlarning madaniy jihatdan o‘zgarishiga qarab o‘zgarib, moslashib boradigan jumlar hisoblanadi. Quyidagi maqolada uni o‘rgangan olimlarning unga bergan turli ta‘riflari va ularning bir necha turlari yoritib beriladi. Ham o‘zbek, ham ingliz siyosiy jurnallarida chop etilgan siyosiy shaxslarning nutqidagi evfemizmlar o‘zbek va ingliz tilida tarjima qilib izohlanadi.

Аннотация Эвфемизмы — это предложения, которые изменяются и адаптируются в зависимости от времени и культурных изменений людей. В следующей статье будут объяснены различные определения, данные ему учеными, изучавшими его, и их несколько типов. Эвфемизмы в выступлениях политических деятелей, опубликованных как в узбекских, так и в английских политических журналах, переводятся на узбекский и английский языки.

Abstract Euphemisms are sentences that change and adapt depending on the time and cultural changes of people. In the following article, the various definitions given to it by the scientists who studied it and their several types will be explained. Euphemisms in the speeches of political figures published in both Uzbek and English political magazines are translated into Uzbek and English.

Tayanch iboralar: semantik ko`tarilish, metaforik ko`chish, kengaytirish, litota, tag ma`no, to`g`ridan-to`g`ri aytmaslik va mavhumlash.

Ключевые слова: смысловое возвышение, метафорическое смещение, расширение, литота, преуменьшение, прямое невысказывание и абстрагирование.

Key words: semantic shift, metaphorical transfer, widening, litotes, understatement, indirection, abstraction.

Kirish:

Til- har bir siyosatchi hayotida muhim rol o`ynaydi. Ma`lum bir tomoshabinning, uning ijtimoiy kelib chiqishi, lavozimi va kasbidan qat`iy nazar, ko`ngliga yo`l topib so`zlarni to`g`ri tanlash siyosatchi haqida ijobiy taassurot qolishining kaliti hisoblanadi. Biz shuni esda saqlashimiz kerakki, siyosiy til doim biror bir maqsadga yo`naltirilgan bo`ladi. Siyosatchilar tildan murosaga kelish, xalqni ruhlantirish, ovozlar sonini oshirish va noxushliklarni oldini olish uchun foydalanishadi. Shuning uchun ham, hech qaysi siyosatchi to`satdan nutqi tayyor bo`lmay turib so`zga chiqmaydi. Nutqi oldindan ehtiyotkorlik bilan tuzib chiqilgan bo`ladi. Siyosatchilarning nozik mavzularga murojaat qilishi ortida nafaqat xushmuomala ko`rinish va xalqqa hamdard bo`lish, balki o`zining siyosiy raqibiga hujum va xalqning ko`nglidan joy olishga harakat ham yotadi. Shu boisdan, siyosiy nutqda evfemizmlarning faol tarzda qo`llanilishining guvohi bo`lamiz. Evfemizmlar ma`lum bir murojaat qilishga andisha qilinadigan mavzularga hech kimni haqorat qilmay va insonlarda yomon taassurot qoldirmay vaziyatdan chiqishning xavfsiz usuli hisoblanadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Allan va Burridge (2006) evfemizmlarni “yuz” ga qiyoslashadi. Haqiqatdan ham, siyosiy tilda evfemizmlardan foydalanish siyosatchilarning ehtiyojiga javoban ularning

jamiyat tomonidan maqullanishlari va o‘zlarining xalq oldidagi ijobiy yuz (ko‘rinish)larini saqlab qolishlarini ta‘minlaydi. ¹Garchi siyosiy partiyalar tomonidan ko‘plab bosimlar qo‘yilsa ham, nutqiy xushmuomalalik orqali odamlarning mehrini qozonish siyosatchilarning bir strategiyasi hisoblanadi. Bu usul orqali ular jamiyatning nozik qatlami hisoblangan uysiz, nogiron va etnik jihatdan ozchilikni tashkil qiladigan guruhlarni noqulay vaziyatga solib qo‘yishdan qochishadi. Shu narsa ayon-ki, nafaqat siyosatchilar, balki tibbiyot xodimlari, qonun himoyachilari va ta‘lim sohasi vakillari ham ishlatayotgan tillariga ehtiyot bo‘lib, o‘z tinglovchilariga e‘tibor qaratishlari lozim. Chunki ularni tinglovchilar og‘ir dardga chalingan bemoq, aybsiz, himoyaga muhtoj mahbus va ko‘ngli tez sinib qoluvchi talaba bo‘lishi mumkin. Siyosatchilarning nutqi esa bundanda kengroq ko‘lamdagi tomoshabinlar tomonidan tinglanadi. Ularning bir e‘tiborsiz ravishda ishlatib qo‘yilgan so‘zi ko‘plab ovozlarni yutqazishiga olib kelishi mumkin. Biroq, ² evfemizmlar har doim ham qo‘pol tuyulgan so‘zlarni boshqa so‘zlarga almashtirish degani emas, ba‘zan nutqdan ko‘zlangan haqiqiy ma‘no-mazmunni yashirish uchun ham qo‘llaniladi. Fromklin (2005) evfemizmlar tabu so‘zlarni ishlatishdan qochish uchun qo‘llaniladi degan. ³Tabu- bu ma‘lum jamiyatda uning a‘zolarini uyatga yoki tashvishga qo‘yishi mumkin bo‘lgan, ishlatish taqiqlangan yoki foydalanishdan qochiladigan so‘zlar hisoblanadi. Wardhaugh (2010) evfemizmlar tabularga o‘xshab odamlarga aytilishi taqiqlangan so‘zlar emas, balki aylanma usulda insonlarga yetkaziladigan jumlar degan. Pavlenko (2006) esa evfemizmlar so‘zlovchini xohlanmagan emotsional ko‘tarilishdan himoya qilish demakdir degan.

Metodlar

Bu maqolani yozish uchun, asosan, onlayn chet el maqolalaridan foydalanildi. Ko‘pgina manbalar to‘planib, ulardan yig‘ilgan xulosalar asosida mulohazalar va

¹ Eliecer Crespo-Fernández (2014) Euphemisms and political discourse in the British regional press. Brno studies in English

² Ridwan, Yuliana and Murni, Sri Minda and Santoso, Didik. (2020). Euphemism Of Political News In Republika Online Mass Media. Jurnal Linguistik Terapan Pascasarjana, 17 (1). pp. 91-101. ISSN 0216-5139

³ Wardhaugh, Ronald. (2000). An Introduction to Sociolinguistics (Third edition). Oxford: Blackwell Publishers Ltd.

tahlillar qilindi. Shuningdek, muhokama qismida chet elning Guardian jurnalida chop etilgan siyosiy yangiliklar tarkibida qo‘llanilgan evfemizmlarning mazmuni va O‘zbekistonning Kunuz saytida joylashtirilgan siyosiy ma‘lumotlar tarkibidagi evfemizmlarning tahlili yoritib berildi. Evfemizmlarga misollar topish uchun ko‘pgina siyosiy maqolalar sinchiklab o‘qib chiqildi. Siyosiy yangiliklar tushirilgan videolar ham ko‘rib, ular tarkibidagi evfemizmlar muhokama qismida ko‘rsatib ketildi.

Natija va muhokama

Semantik o‘zgarish orqali yangi evfemizmlar yaratilishi mumkin.

1. Semantik ko‘tarilish. Rawson (1995)ga ko‘ra, muayyan qismni muhokama qilmaslik uchun, butunni yoki shunga o‘xshash umumiylikni alishtirish. Misol uchun, “sleep-uxlamoq” so‘zi “go to bed-uxlashga yotmoq”ga aylanadi.
2. Metaforik ko‘chirish. Bu jarayon xuddi biror bir turdagi gulni boshqa turiga qiyoslashdek, bir tartibli narsalarni bir xil narsalarga solishtirish orqali yuzaga keladi. Masalan, “pimple-husnbuzar” so‘zi “blossom-gullash” so‘ziga alishtirib qo‘llaniladi.
3. Kengaytirish. Biror bir og‘riqli vaziyatda muayyan atama mavhumlashtiriladi. Masalan, “feces-najas” so‘zi aytilishda noqulaylik yuz bergani sababli “solid human waste-qattiq inson axlati” shaklida qo‘llaniladi.
4. Litotalar. Bu evfemizmlar so‘zni uning salbiy ifodasi bilan almashtirish orqali teskari ma‘no berish bilan yasaladi. Shunday qilib, biz “tidy-tartibli” so‘zi o‘rniga “untidy-tartibsiz” yoki “clean-toza” so‘zi o‘rniga “unclean-rasvo” deyishimiz mumkin.
5. Tag ma‘no. Bu usul aniq ma‘noni ko‘rsatish xavfini kamaytiradi. Masalan, yadro reaktori, aslida, urishish uchun qurol bo‘lsa ham, uni himoyalanih obyektida qo‘llash.
6. To‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmalik. Ba‘zi bir mavzu va atamalar juda ta‘sirli bo‘lishi mumkin. Masalan, “assembly center-yig‘ilish markazi” “prison-qamoqxona” so‘zi uchun bilvosita evfemizmlar bo‘lishi mumkin.

7. Mavhumlash. Ba'zi so'zlar (u, muammo, vaziyat va narsa) g'oyalarni iloji boricha kengroq ma'noda chiqarishga yordam beradi va ideal qoplovchi so'zlarni yaratadi.

AOKAda o'tkazilgan brifingda Korrupsiyaga qarshi kurashish axborot xizmati rahbari Sherzod Saparovning Kunuzda joylashtirilgan nutqida:

“..Javobgarlikka tortilgan 6535 nafar shaxsning 1076 nafari yoki 16.4 foizi ozodlikdan mahrum qilingan...”

Bu yerda “ozodlikdan mahrum qilmoq-to deprive of liberty” “qamamoq-to arrest” so`ziga evfemizm shaklida qo`llanilgan.

“...Eng ko`p sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar o`zlashtirih yoki rastrata yo`li bilan talon-taroj qilish.... va hokimiyat yoki mansab vakolatini suistemol qilish hisoblanadi...”

“Talon-taroj qilmoq-to seize illegally” so`zi “mulkni noqonuniy o`zlashtirish-to possess property illegally” so`zi o`rnida qo`llanilgan. “Suistemol qilish” so`zi “berilgan lavozimdan noto`g`ri foydalanish-abuse of power” o`rnida qo`llanilgan.

“ ...Ish beruvchi tomonidan mavjud vakant o`rinlariga ishga joylashishni so`rab murojaat qilgan fuqarolarga nisbatan tamagirlik holatlari hamon uchrab turibdi...”

“Tamagirlik-To greed” so`zi “xizmat uchun biror narsa kutish” ma`nosida qo`llanilgan.

Guardian jurnalida chiqarilgan yangilikda shunday aks etadi:

“...A day earlier, Trump issued a more typically acidic message, predicting rival Joe Biden won't "make it to the gate" in November. He repeated his unproven claims that the 2020 election was rigged...”

Bunda “won`t make it to the gate-eshikkacha ham bormaydi” so`zi “saylovda qatnasha olmaydi” ma`nosida yashirin evfemizm shaklida qo`llanilgan.

Xulosa

Olimlar tomonidan evfemizmlar ko`pgina guruhlarga va turlarga bo`lingan. ⁴Kate Burridge tomonidan uning ishlatilish sababiga ko`ra olti guruhga , ya`ni “himoya, yashirin, ko`taruvchi, provokatsion, uyg`un va Ludik evfemizmlar” ga bo`lgan bo`lsa, ⁵Rawson uning yaratilishi bo`yicha yeti guruhga, semantik ko`tarilish, metaforik ko`chish, kengaytirish, litota, tag ma`no, to`g`ridan-to`g`ri aytmaslik va mavhumlash kabilarga, bo`ldi. Har qanday bo`linishda ham, evfemizmlar noqulay vaziyatdan boshqa insonlarni uyatli holatga tushirmay chiroyli chiqib ketish san`ati hisoblanib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Allan, Keith and Burridge K. (2006). *Forbidden Words. Taboo and the Censoring of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.

Burridge, K. (2012). *Euphemism and Language Change: The Sixth and Seventh Ages*. URL: <http://journals.openedition.org/lexis/355>; DOI: <https://doi.org/10.4000/lexis.355>

Crespo-Fernández E. (2014). *Euphemisms and political discourse in the British regional press*. Brno studies in English

Fromkin, V. (2005). *An Introduction to Language*. New York: Thompson Corporation.

Orwell, George (2006). *Politics and the English Language*. Peterborough: Broadview Press.

Pavlenko, A. (2006). *Bilingual minds: emotional experience, expression and representation*. Toronto: Multilingual Matters.

Rawson, H. (1995). *A Dictionary of Euphemism & Other Doublespeak*, second edition.

⁴ Burridge, K. (2012). *Euphemism and Language Change: The Sixth and Seventh Ages*. URL: <http://journals.openedition.org/lexis/355>; DOI: <https://doi.org/10.4000/lexis.355>

⁵ Rawson, H. (1995). *A Dictionary of Euphemism & Other Doublespeak*, second edition.



Ridwan, Yuliana and Murni, Sri Minda and Santoso, Didik. (2020). Euphemism Of Political News In Republika Online Mass Media. *Jurnal Linguistik Terapan Pascasarjana*, 17 (1). pp. 91-101. ISSN 0216-5139

Wardhaugh, Ronald. (2006). *An Introduction to Sociolinguistics* (Third edition). Oxford: Blackwell Publishers Ltd.

Wardhaugh, Ronald.(2010). *An Introduction to Sociolinguistics* 6th Ed. Oxford: Wiley- Blackwell.

